

BO'KA TUMANI HUDUDIDA TARQALGAN O'SIMLIKLARGA EKOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI

Xaydarova Halima Normatovna

Dotsent

Xolmatov Mustajo Zafar o'g'li

Magistr

+998998064597; +998935742722

Annotatsiya.

Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida o'suvchi tabiiy o'simliklar, ularning tarqalgan hududlar, ekologik holati tavsif berilgan.

Turlarning kamayib ketayotganligiga turli ekologik holatlarning ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan. Ayrim o'simliklarning lotincha nomlari, o'sish sharoiti hamda lotincha nomlari ham keltirilgan.

Kalit so'zlar. Yovvoyi o'simliklar, ekologik hududlar, qoqio't, qush qo'nmas, sebarga, na'matak, havo harorati, tashqi ekologik omillar.

Аннотация.

В работе описаны природные растения, произрастающие в Букинском районе Ташкентской области, их ареалы распространения и экологическое состояние. Приведены сведения о влиянии различных экологических факторов на сокращение численности видов. Также указаны латинские названия некоторых растений, условия их произрастания и латинские наименования.

Ключевые слова. Дикорастущие растения, экологические зоны, осока, птичье гнездо, себарга, почва, температура воздуха, внешние факторы среды.

Annotation.

In the Bo'ka district of Tashkent region, the growing natural plants, their distribution areas, and ecological status are described. The impact of various ecological conditions on the decline of species is discussed. The Latin names of certain plants, their growing conditions, and their Latin names are also provided.

Keywords. Wild plants, ecological areas, sedges, bird's nest, sebarga, soil, air temperature, external environmental factors.

Kirish

Insoniyat qadim zamonlardan beri o'simliklar dunyosidan turli maqsadlarda foydalanib kelmoqda. Ayniqsa ushbu o'simliklardan oziq-ovqat, dori-darmon,



qurilish materiallari, kiyim-kechak kabi eng zaruriy manbalarni tayyorlashda foydalaniladi. Shunday ekan, o'simliklar dunyosi va ularning ahamiyatini bilganimiz xolida, ularni o'rganish hamda, ko'paytirish maqsadida tinimsiz izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Biz izlanishlar olib borayotgan hududda ham o'simliklar jamoasi juda ko'p turlarni tashkil qiladi va ulardan xalq xo'jaligida, tibbiyotda keng foydalaniladi.

Toshkent viloyati hududi 22 tuman va shahardan tashkil topgan bo'lib asosan, tog', tog'oldi va tekislik hududlariga bo'linadi, shu bilan birga Respublikamiz hududida uchraydigan 4500 turga kiruvchi o'simliklarning 1200 dan ortiq turi Toshkent viloyati hududida uchrashi aniqlangan, shundan 230 ga yaqin o'simlik turi Toshkent viloyati Bo'ka tumani hududida uchrashi aniqlangan.

Toshkent viloyatiga qarashli Bo'ka tumani hududi asosan tekisliklardan iborat bo'lib unda, ko'p yillik o't-o'simliklardan daraxtlar, butalar va yarim butalar hamda, chala buta, buta va ko'p yillik o't o'simliklari, o'simliklar qoplaminig asosiy qismini tashkil etadi.

Asosiy qism.

Tumandaagi o'simlik qoplaminig asosiy qismini ko'p yillik o'tlar, butalar, chala butalar, daraxtlar tashkil etishiga qaramay bu o'simliklar qoplaminig ko'payishiga aks ta'sir etuvchi ekologik omillarni sanab o'tamiz: Bo'ka tumanining Piskent tumani bilan chegaradosh hududlarida Olmaliq shahridagi zavodlarning chiqindilari yer osti suvlariga qo'shilib kelishi natijasida o'tloq se bargasi, namatak, va to'qayzorlardagi qamish va qo'g'a o'simlik qoplaminig kamayishi, Oqqo'rg'on tumani bilan chegaradosh hududlarda tuproq sho'rlanishi va havo haroratining nisbatan past bo'lishi shu bilan birgalikda Bekobod tumaniga yaqin hududlarda yil bo'yi kuchli shamol va tuproq erroziyasining kuchayishi kabi ekologik omillar o'simliklar qo'plami va vegetatsiyasiga salib ta'sir ko'rsatishi tumandagi o'simliklarning ekologik rentabilligini pasaytiruvchi omillar ekanligini sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosalar.

Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Bo'ka tumanining sersuv hududlarida qirqbo'g'im, qamish va qo'g'a o'simliklar ancha keng maydonlarni egallab kelgan bo'lib, tumanning Piskent va Oqqo'rg'on tumaniga tutash hududlarida tuproq va suv bilan bog'liq ekologik vaziyat birmuncha og'irligi o'simlik qoplaminig keyingi vaqtlarda kamayib borishiga sabab bo'layotganligi kuzatilmogda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurmetov O.A., Raximova T.T. va boshq. Ekologiya., T., 2008
2. Belolipov I.V. va boshq., O'zbekistonning o'simliklar dunyosi., T., 1997.
3. Prator U.P., Jumayev K.I., Botanika(anatomiy, morfologiya, sistematika geobotanika), T., 2010
4. I. Xamdov Botanika asoslari., T., 1990
5. Xamdov I., Bobomurodov Z., Xamdova E. Ekologiya., T., 2009
6. Xolmatov H.X., Qosimov A.I., Dorivor o'simliklar., T., 1992.

Urmon.gov.uz

Karantin.uz

Uznature.uz

